



ISSN 2181-1571

FarDU. ILMIY XABARLAR

IJTIMOIY FANLAR




2/2025



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket Ilmiy ishlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof.
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, prof.
A'ZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof.
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zRFA t.f.d., prof.	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof.
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f,d., prof.	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya)	Sidoarjodagi Muhammadiya universiteti, Siyosat va xalqaro huquq. Ogaya davlat universiteti, PhD, prof.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof.	SCOTT LEVI (AQSH)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof.	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Ataturk Universiteti
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d., prof.	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
ABDULLAEVA Z (Qirg'iz Respublikasi)	OshDU k.f.n., dots.	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof.		

Tahririyat kengashi

IJTIMOIY FANLAR BO'YICHA			
XONKELDIYEVA G.	FarDU, i.f.d., prof.	SIDDIQOV I.	FarDU, f.f.d., prof.
XAKIMOV N.	FarDU, f.f.d., dots.	YULDASHEV S.	FarDU, f.f.d. (DSc).
ISOMIDDINOV M.	FarDU, t.f.d., prof.	G'ANIYEV B.	FarDU, f.f.d., (DSc) dots.
USMONOV B.	FarDU, t.f.d., prof.	QOSIMOV A.	FarDU, f.f.d., prof.
MAXMUDOV O.	FarDU, t.f.d., dots.	QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d., prof.
QAHHOROVA M.	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof.	ALIMOVA N.O	FarDU, t.f.b.f.d., dots.
QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d.prof.	XASANOV M.	FarDU, t.f.b.f.d., prof.
MAMATOV M.	FarDU, f.f.d., prof.	SHAMSIYEVA M.	FarDU, t.f.b.f.d., dots.
DADABAYEVA	FarDU, yu.f.f.d., dots.		

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.l., b.f.d., prof.

Texnik muharrir: Sheraliyeva J.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

Farg'ona 2025

J.Sultonov	
Chingizxon va Jin davlati o'rtasidagi diplomatik va harbiy munosabatlarning tarixiy tahlili	224
M.A.Boltaboyev	
Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi musulmon bo'limgan aholiga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati.....	234
Sh.B.Jumayeva	
Globallashuv davrida boqiy marosim: Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va mozorlarida ziyorat	239
M.R.Sodiqova	
Ipakchilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni (1991-2021-yillar)	244
A.X.Nigmatov	
Shanxay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishining tarixiy asoslari	251
M.B.Nazirov	
Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri	257
B.N.Rizayev, Б.Н.Ризаев, B.N.Rizaev	
A.N.Kasig'in islohotlarining O'zbekiston qishloq xo'jaligida joriy etilishi	260
M.A.Maxmudov	
XX asrning 20-30-yillarda O'rta Osiyodagi madaniy obidalarni saqlab qolishda sredazkomstarisning faoliyati.....	266
I.B.Boxodirov	
Birinchi jahon urushi yillarda turkiston harbiy okrugida mahalliy qurolli kuchlar va harbiy asirlar masalasi.....	270
J.Sultonov	
Xorazm imperiyasining vujudga kelishi va Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bosqiniga qadar olib borgan harbiy-diplomatik strategiyasi	273
O.B.Nizomiddinov	
O'zbekiston SSRda lotin yozuvining joriy etilishi: muammo va ziddiyatlar (Farg'ona viloyati misolida)	279
O.H.Jaynarov	
O'zbekiston SSR advokaturasi tizimi: islohot va natijalar (XX asr 20-yillari).....	284
O.M.Normatov	
Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari xususida	289
Y.A.Shukurillayev	
Buxoro amirligida qo'shin qarorgohlarining o'rnatilish taomillari.....	293

ILMIY AXBOROT

Z.X.Oxunova	
Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallahuvni tadqiq etishdag'i falsafiy yondashuvlar	297
X.J.Isomiddinov	
Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlari	300
M.B.Nazirov	
Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tub xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri	304



УО'К: 94(575.1)

**FARG'ONA VODIYSI QISHLOQ XO'JALIGI VA SAVDO-SOTIQ MUNOSABATLARI
TARIXINING AYRIM JIXATLARI XUSUSIDA**

**СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО И ТОРГОВЛЯ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ
О НЕКОТОРЫХ АСПЕКТАХ ИСТОРИИ ОТНОШЕНИЙ**

**AGRICULTURE AND TRADE OF THE FERGANA VALLEY
ON SOME ASPECTS OF THE HISTORY OF RELATIONS**

Normatov Otabek Maxamatjonovich 

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tarix kafedrasi mudiri, t.f.f.d.(PhD.) dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonning muxim hududlaridan hisoblangan Farg'ona vodiysining qishloq xo'jaligining, xususan dehqonchilik, chorvachilik, ipakchilik, g'allakorlik kabi tarmoqlari haqida so'z boradi. Farg'ona vodiysining qishloq xo'jaligi sohasi o'ziga xos ko'rinishga ega tarmoq bo'lib, u respublika iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega hisoblangan. Jumladan maqolada savdo-sotiq munosabatlaring tashkil etilishi va umumiy holati ham tarixiy ma'lumotlar asosida yoritilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются отрасли сельского хозяйства Ферганской долины, одного из важнейших регионов Узбекистана, в частности земледелие, животноводство, шелководство и зерноводство. Аграрный сектор Ферганской долины – уникальная отрасль, имеющая большое значение в экономическом развитии республики. В частности, в статье на основе исторических данных рассматриваются организатія и общее состояние торговых отношений.

Abstract

The article examines the agricultural sectors of the Fergana Valley, one of the most important regions of Uzbekistan, in particular agriculture, livestock breeding, sericulture and grain growing. The agricultural sector of the Fergana Valley is a unique sector that is of great importance in the economic development of the republic. In particular, the article examines the organization and general state of trade relations based on historical data.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, savdo-sotiq, bozorlar, Farg'ona vodiysi, Qo'qon okrugi, Andijon okrugi, Xo'jand okrugi.

Ключевые слова: сельское хозяйство, фермерство, животноводство, торговля, рынки, Ферганская долина, Кокандский район, Андижанский район, Худжандский район.

Key words: agriculture, farming, livestock breeding, trade, markets, Fergana Valley, Kokand district, Andijan district, Khujand district.

KIRISH

1924-1925 yillarda O'zbekiston SSR xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i qishloq xo'jaligidan iborat bo'lib, unda respublika aholisining 85 foizi band bo'lgan. O'zbekiston 1 195 000 desyatina (*Bir desyatina* - 1,03 hektarga teng uzunlik o'lchov birligi.) sug'oriladigan er maydoniga ega bo'ldi [1]. Ittifoq bo'yicha 1923-1924 yillarda etishtirilgan 14,2 mln pud (*Bir pud* - 16,38 kg teng og'irlik o'lchov birligi.) paxtadan O'zbekiston hissasiga taxminan 10 mln pudi (qariyb 70 foizi) to'g'ri kelgan edi. Farg'ona va Zarafshonning serhosil vodiylari, Samarkand, Buxoro, Xorazm va Toshkentning kattagina qismida paxta dalalari joylashgan edi. Farg'ona, Toshkent, Samarkand, Buxoro va respublikaning boshqa rayonlari bog'-rog'lari, uzumzorlari, pillachiligi bilan mashhur edi.

O'zbekiston SSR g'allakor va chorvachilik rayonlariga ham ega bo'lgan. Milliy-hududiy chegaralanishdan so'ng O'zbekiston O'rta Osiyo bo'yicha hisobga olingan 10 321 000 bosh chorvadan deyarli 2 600 000 boshi berildi. Ana shu negizda asoslanib Buxoro, Samarkand, Qashqadaryo va Surxondaryoda chorvachilik, ayniqsa, qorako'lchilik yanada rivojlantirildi [2]. 1925 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston SSRning umumiy maydoni 184 836 km² ni tashkil etib, 7ta viloyat yani Zarafshon, Qashqadaryo, Samarkand, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlari va alohida Konimex rayonini o'z ichiga olgan [1]. Respublikaning umumiy aholisi 4

430 519 nafar bo'lib, shahar aholisi 995 700 nafar, qishloq aholisini esa 3 434 819 nafar tashkil etgan[3.]. Ko'rinish turibdiki aholining aksariyat qismi qishloqlarda istiqomat qilishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari oid tarixiy tadqiqotlarni quyidagi uchta guruh: sovet davri, mustaqillik yillari hamda xorijiy tadqiqotlarga bo'lish mumkin. Sovet hokimiyati yillarda davlat va siyosat arboblari, tarixchilar tomonidan yaratilgan ayrim tadqiqotlarda Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari haqidagi fikrlar ma'lum ma'noda o'z aksini topgan.

XX asr 20-30-yillarda chop etilgan boshqa bir turkum adabiyotlarda O'zbekistonning sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan ma'muriy-hududiy siyosati davridagi tarixi va xo'jalik ahvoli, Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari to'g'risida so'z yuritiladi. Bundan tashqari, O'zbekiston SSRning rahbarlari, siyosiy arboblarning ham bu masala xususidagi maqolalari va nutqlari ham mavjud.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sohasi o'ziga xos ko'rinishga ega tarmoq bo'lib, u respublika iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega hisoblangan. Respublika bo'yicha qishloqda yashovchi xo'jaliklarning umumiyligi soni 676 000ta bo'lib, ularning 279 000tasi Farg'ona viloyati hisobiga to'g'ri kelgan[1.]. Ma'lumotlardan ham ko'rinish turibdiki, qishloq aholisi vodiyya miqdor jihatidan ko'p va anchagina zinch joylashganligi bilan ham xarakterlanadi.

Markazni rayonlashtirish komissiyasi tomonidan o'tkazilgan ma'muriy islohatga ko'ra, amaldagi viloyatlar o'rniiga okruglar, uezdlar o'rniiga rayonlar tuzilib, hududlardagi qishloq sovetlari soni esa ko'paytirildi. O'zbekiston SSR tarkibidagi mavjud viloyatlar o'rniiga okruglar tashkil etilib, Farg'ona viloyati hududida ham 3ta, ya'ni Qo'qon, Xo'jand, Andijon okruglari tashkil etildi.

Jumladan Qo'qon okrugi qishloq xo'jaligi xususida fikr yuritadigan bo'lsak, okrug Respublika miqyosida muhim ahamiyatga ega bo'lgan okruglardan biri hisoblangan. Qo'kon okrugida qishloq xo'jaligi alohida ahamiyatga ega tarmoq hisoblanib, qishloq xo'jaligining ko'rinishi hududning shart-sharoitidan kelib chiqib turlicha bo'lgan. Okrugning qishloq xo'jaligida yaroqli erlearning umumiyligi maydoni 182 619 desyatinani tashkil etib, shundan 176 500 desyatinasi (96,6 %) sug'oriladigan, 6 119 desyatinasi (3,4 %) esa lalmikor erlar hisoblangan. Ekin maydonlarining tabiiy sharoitlari paxta etishtirishga juda qulay bo'lgan. Ekin maydonlarida asosan quyidagi mahsulotlar: paxta (40,5 %), makkajo'xori (21,8 %) va donli ekinlar (21,2%) ekilgan[2.].

Chorvachilik esa okrugda yordamchi ahamiyatga ega bo'lgan. Chorvachilikda qora mollar asosan ishchi kuchi sifatida foydalanish, qisman sotish va oziq-ovqat uchun etishtirilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, chorva mollarining umumiyligi miqdori okrug bo'yicha 240 170 bosh hisoblanib, uning 46,4 %ni yirik qora mollar, 17%ni otlar va 34,2ni esa mayda qoramollar tashkil etgan[3.]. Okrug bo'yicha har bir xo'jalikka qora mollar o'rtacha taqsimlanganda 2 - 2,5 boshgacha to'g'ri kelgan. Jumladan, Qo'qon okrugida savdo aloqalari ham o'ziga xos ravishda olib borilgan. Okrugda aholi savdo ishlarini yuritish va iste'mol ehtiyojlarni qondirish maqsadida markaziy shahar bozorlari va qishloq bozorlari faoliyat yuritgan. Masalan, Rishton, Beshariq, Laylakxona, Quva, Yaypan, Chodak va boshqa shunga o'xshash 38ta qishloq bozorlari bor edi. Asosiy yirik shahar bozorlari esa Qo'qon, Farg'ona, Marg'ilon va Chust kabi vodiyning yirik shaharlarda joylashgan edi[3.].

O'zbekiston SSRda o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan yana bir xududlardan biri, Xo'jand okrugi hisoblanib, uning qishloq xo'jalik sohasini umumiyligi holati quyidagicha edi. Okrug aholisi qishloq xo'jalik sohasida bog'dorchilik, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullaniganlar. Okrug bo'yicha yaroqli erlearning umumiyligi maydoni 35 007 desyatinani tashkil etib, shundan 31 984 desyatinasi sug'oriladigan, 3 023 desyatinasi esa lalmikor erlar hisoblangan. Demak ekin maydonining 91% sug'orma dehqonchilikka, 9 %ni esa lalmikorlikka asoslangan. Okrugda asosan sug'orma dehqonchilik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Dehqonchilikda asosan quyidagi mahsulotlar: bug'doy (35,1%), paxta (24,3%), guruch (15,4%) va makkajo'xori ekilgan[4.]. Bundan tashqari okrugning Xo'jand va Konibodom rayonlarida bog'dorchilik bilan juda keng shug'ullanishgan. Umumiyligi ekin maydonining 3997 desyatinasi bog'lar, 838 desyatinasi uzumzorlar bo'lgan. Okrugdan yiliga 770 000 pud turli xil mevalar, 146 000 pud uzum va 484 000 pud quruq meva Xo'jand va Melnikov stansiyalaridan chetga yuborilganidan bilish mumkinki, bu hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish juda yaxshi yo'lga qo'yilganligi, Markazning e'tiboridan chetda qolmasdan, ular o'z manfaatlari yo'lida foydalanishdi.

TARIX

Qishloq xo'jaligida yana ipakchilik va rayonlarning tog'li hududlarida esa ayniqsa chorvachilik sohasi rivojlangan bo'lib, Asht rayonining chorvachilik sohalari rivojlangan hududlariga G'oji, Ko'prikboshi va Punuk qishloqlarini, ipakchilikka esa Qalam, Qirqquduq, Jarbuloq, Sarvak, Paxtakor, O'zbekoqjar va Tojikooqjar qishloqlarini misol keltirishimiz mumkin. Okrugda bu sohalar yordamchi tarmoq hisoblangan. Ma'lumotlarga ko'ra, chorva mollarining umumiyligi miqdori okrug bo'yicha 89 005 bosh hisoblanib, uning 7,7 %ini otlar, 30 %ini yirik qoramollar va qolgan qismini asosan mayda qoramollar tashkil etgan.

Xo'jand okrugida amalga oshirilgan savdo-sotiq ishlari nazar tashlaydigan bo'lsak, tijorat o'ziga xos ravishda tashkil topgan. Okrugda asosiy savdo markazi Xo'jand shahri hisoblangan. Bundan tashqari Konibodom, Isfara, Shaydon shaharlari, Quyi Ashtda asosiy savdo bozorlari faoliyat yuritgan. Bundan tashqari Pistako'z, G'o'lakandoz, Qamishqo'rg'on va boshqalarda ikkinchi darajali bozorlar ham bo'lgan[2.]. Markazning rayonlashtirish bo'yicha tuzgan komissiyasining rasmiy ma'lumotlariga qaraganda, Xo'jand okrugi shimoldan Toshkent okrugi, sharqdan Qo'qon okrugi, janubdan Qirg'iziston, g'arbdan bir qismi Tojikistonning O'ratega viloyati, bir qismi esa Toshkent okrugi bilan chegaralangan.

Farg'ona vodiysida muhim ahamiyatga ega bo'lgan okruglardan yana biri Andijon okrugi hisoblanib, rayonlashtirish komissiyasining rasmiy ma'lumotlariga qaraganda, Andijon okrugi shimoli-sharqda va janubi-sharqda Qirg'iziston avtonom oblasti bilan, g'arb va janubi g'arbda esa Qo'qon okrugi bilan chegaralangan. Okrugning umumiyligi maydoni 6 427 kvadrat vyorstani (*Bir vyorsta - 1,0668 km ga teng rus uzunlik o'lchov birligi.*) tashkil etgan bo'lib, tarkibida quyidagi 12ta rayon kiritildi: Kosonsoy, Yangiqo'rg'on, Sho'rko'rg'on, Norin, Izboskan, Bاليqchi, Shaxixon, Asaka, Aravon (Marhamat), Andijon, Jalolquduq va Qo'rg'ontepa [6.].

Andijon hududida qishloq xo'jaligi muhim ahamiyatga ega tarmoq hisoblangan. Okrugning umumiyligi ekin maydoni 216 368 desyatina bo'lib, uning atiga 1 %ini lalmikor erlar tashkil etgan. Qishloq xo'jaligida asosan paxtachilik, dukkakli ekinlar va donli ekinlar etishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Okrugning sug'oriladigan erlarida asosan quyidagi ekinlar: paxta (47,6 %), sholi (18,9 %), makkajo'xori (10,3 %) va bug'doy (10,2 %) etishtirilgan. Bundan tashqari, katta miqdorni tashkil etmasada, beda (2,8 %) ham ekilgan[2.].

Chorvachilik sohasi ham okrugda o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, u yordamchi tarmoq hisoblangan. Chorva mollaridan asosan mavsumga qarab ishchi kuchi sifatida foydalanilgan. Ayniqsa chorva mollari savdosiga kuzda, hosilni yig'ishtirish paytida avjida bo'lgan. Okrug bo'yicha chorva mollarining umumiyligi miqdori 207 192 boshni tashkil etgan. Uning 42 364 boshi otlar, 98 371 boshi yirik qoramollar, 44 193 boshi qo'ylar va 18 816 boshi esa echkilardan iborat bo'lgan[7.].

Qishloq xo'jaligida dehqonchilik va chorvachilikdan tashqari bog'dorchilik, uzumchilik va ipakchilik kabi sohalar ham o'ziga xos ravishda tashkil etilgan bo'lib, ular ham okrugda alohida o'ringa ega tarmoq hisoblangan.

Ma'lumotlarga ko'ra okrug hududida, 40dan oshiq bozor faoliyat yuritgan bo'lsa, eng muhimlari Namangan va Andijonda joylashgan edi. Ana shu jihatdan ham okrugdagagi savdo-sotiq ishlari asosan ikki qismga ajratilgan. Birinchisi Namangan, okrugning markaziy va shimoli-g'arbiy qismlarini, Andijon esa okrugning qolgan qismlaridagi aholi iste'mol ehtiyojlarni qondiruvchi markaz hisoblangan. Kuchli iqtisodiy markaziy bozor Asaka bozori hisoblangan. Andijon okrugida faqat oldisotdi faoliyati bilan shug'ullanuvchi savdo shohobchalaridan tashqari 41ta paxta sotib olish punkti va turli mahsulotlarni qayta ishlovchi 11ta punktlar ham mavjud bo'lib, ular okrugning asosiy manzilgohlarida faoliyat yuritgan. Ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, Andijon okrugi paxta xom ashyosini etishtirish va tayyorlash bo'yicha Respublikada etakchi o'rinda bo'lgan.

XULOSA

Xullas, Farg'ona vodiysining qishloq xo'jalik va savdo-sotiq munosabatlari, rayonlashtirish o'tkazilgan davrda o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, ushbu maqolada Qo'qon, Andijon va Xo'jand okruglaridagi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlarining ayrim jihatlariga qisman e'tibor berilgan bo'lsada, bu hududlar O'zbekiston tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan, madaniy, iqtisodiy markazlardan biri bo'lganligini yana bir bor ta'kidlab o'tishimiz mumkinki, bu jihatlarni bitta maqola doirasida yoritish mushkul.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вся Средняя Азия. Справочная книга на 1926 хоз. год. – Т.: Издание Средне – Азиатского отделения Российско – Восточной торговой палаты, 1926. – 742 с.
2. Материалы по районированию Узбекистана. Выпуск И. Краткая характеристика проектируемых округов и районов. – С.: Издание ЦКР Уз, 1926. – 179 с.
3. Материалы по районированию Туркестана. Выпуск ИИ. Проект административно – хозяйственного деления ТССР. Под редакцией Председателя Комиссии районированию Д.П. Красновского. – Т.: Издание ТЭС, 1924. – 165 с.
4. Турсунов Ҳ.Т. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши. – Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1958. – 250 б.
5. Ўзбекистон МА, 837-фонд, 1- рўйхат, 46-иш, 204 - 209 - варақлар.
6. Ўзбекистон МА, 86-фонд, 1-рўйхат, 3402-иш, 333-варақ.
7. Ўзбекистон МА, 86-фонд, 1-рўйхат, 3402-иш, 341-342-варақлар.
8. O.M.Normatov. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy holati rayonlashtirish o'tkazilishi arafasida // FarDU ILMIY XABARLAR. Илмий журнал. 2023/№4. Fargona. 175-180 бетлар.
9. Normatov Otabek Maxamatjonovich, Mamadaminova Bakhtigul Abdupattayevna, Sulaymanova Shohsanam Absamatovna. Administrative-Territorial Reforms Conducted In Central Asia And Its Results // *Journal of Advanced Zoology*, 2023., Volume 44(S6), (S) Issue-02, pp.274–279.
10. Normatov O.M. O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari // FarDU ilmiy xabarlar. Ilmiy jurnal. 2024 / №3. 356-360.